К ВОПРОСУ РАСЧЕТА МОЩНОСТИ, НЕОБХОДИМОЙ ДЛЯ РАЗОГРЕВА КРОМОК ТРУБНОЙ ЗАГОТОВКИ ДО ТЕМПЕРАТУРЫ СВАРКИ	825
Заиркулов Элёр Ёкубжон ўғли	
TEKNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARI	830
Bekishev Allabergen Yergashevich, Hamadulloyev Diyorbek Hasanboy o'g'li	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL AND GOVERNANCE) TAMOYILLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH VA KORPORATIV FAOLIYATGA TA'SIRI: MAKRO VA MIKRO DARAJADAGI TAHLIL	834
Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li	
TESTING THE STATISTICAL SIGNIFICANCE OF DYNAMIC MODELS IN ECONOMICS	838
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
REAL IQTISODIY DAVRLAR NAZARIYASI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TADQIQOTLARDA FOYDALANISH.....	843
Rustamov Narzillo Istamovich	
РАСЧЕТ РАСТЯЖЕНИЯ ДРЕВЕСИНЫ И ДЕРЕВЯННЫХ КОНСТРУКЦИЙ ИЗ МЕСТНЫХ ДРЕВЕСНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОД ДИНАМИЧЕСКИМИ НАГРУЗКАМИ.....	848
Юнусалиев Эльмурод Мухаммадьякубович, Ташпулатов Илхомжон Бахтиёрович	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	854
Евгений Юрьевич Шек	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	860
Шодмонов Қобилжон Қахрамон ўғли	
AGRAR IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	870
Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi, Ibrohimova Muazzam Muhammadjon qizi	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA BU BORADAGI MUAMMOLAR	873
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
ДАТЧИКИ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЛЯ МОНИТОРИНГА ТЕПЛИЧНЫХ КОМПЛЕКСОВ	878
Самадов Эльёр Эркинович	
МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ РАБОТАХ	884
Аннакулов Тулкин Жовбекович, Нормонов Шамсиддин Нураддинович	
ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	892
Гулямов Шухрат Манапович	
OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	896
Xonimqulov Islom Ergash o'g'li	



OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH

Xonimqulov Islom Ergash o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0001-9983-1829

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar hisobini yuritish — xususan, davlat budjeti mablag'laridan oqilona foydalanish, belgilangan maqsadlar bo'yicha xarajatlarni prognozlash va bu jarayonlarning budjet intizomiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda oliy ta'lim tashkilotlarining davlat budjetidan moliyalashtirilishi tartibi, mablag'larni sarflash hamda ijro jarayonini avtomatlashtirish imkoniyatlari orqali budjet jarayonlarida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, moliyalashtirishga asos bo'luvchi hujjatlarni shakllantirish, ularni tasdiqlash, ro'yxatga olish hamda ijrosini amalga oshirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar budjet hisobi standartlari asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: budjet mablag'lari, budjet hisobi standartlari, ijro hisoboti, moliyalashtirish, xarajat guruhlar, xarajatlar smetasi, shaxsiy g'azna hisobvaraqlari.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the accounting of budgetary expenditures in higher education institutions, with particular emphasis on the efficient use of state budget funds, the forecasting of expenditures by designated objectives, and the impact of these practices on budgetary discipline. The study examines the procedures for financing higher education institutions from the state budget, the allocation and utilization of these funds, and the potential for automating execution processes to enhance transparency and accountability in budgetary operations. In addition, the economic relationships involved in the preparation, approval, registration, and execution of financing-related documents are analyzed in accordance with public sector (budget) accounting standards.

Keywords: budget funds, budget accounting standards, execution report, financing, expenditure groups, expenditure estimates, personal treasury accounts.

Аннотация. В данной статье на научной основе рассматривается ведение учета расходов по бюджетным средствам в организаций высшего образования, в частности вопросы рационального использования средств государственного бюджета, прогнозирования расходов по установленным целям и их влияния на бюджетную дисциплину. В исследовании анализируется порядок финансирования организаций высшего образования за счет средств государственного бюджета, направления их использования, а также возможности автоматизации процесса исполнения, способствующие повышению прозрачности и подотчетности бюджетных процессов. Кроме того, в статье рассматриваются экономические отношения, возникающие в процессе формирования документов, являющихся основанием для финансирования, их утверждения, регистрации и исполнения, на основе стандартов бюджетного учета.

Ключевые слова: бюджетные средства, стандарты бюджетного учета, отчет об исполнении, финансирование, группы расходов, смета расходов, личные казначейские счета.

KIRISH

Oliy ta'lim tizimi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi o'rin egallaydi. Ushbu tizim nafaqat malakali kadrlar tayyorlashga, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mehnat bozorini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim tashkilotlarining barqaror va samarali faoliyat yuritishi ularning moliyaviy ta'minoti hamda xarajatlar tizimini to'g'ri tashkil etishga bevosita bog'liqdir. Moliyalashtirish manbalari va ularni boshqarish mexanizmlarining mukammalligi oliy ta'lim subyektlarining rivojlanish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



Oliy ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini, asosan, davlat budjeti mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar (grantlar, kontrakt to'lovlari, homiylik mablag'lari, xalqaro loyihalar doirasidagi tushumlar) hamda xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar asosida amalga oshiradi. Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hajmining cheklanganligi, budjetdan tashqari manbalarning barqaror emasligi hamda xalqaro grantlarning raqobat asosida taqsimlanishi oliy ta'lim subyektlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Shu bilan birga, xarajatlarning rejalashtirilgan smetalar doirasida asosli, maqsadli va manzilli amalga oshirilishini nazorat qilish zarurati ham mavjud. Oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan xarajatlarning to'g'ri tashkil etilishi ularning samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash hamda xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xarajatlar nafaqat moddiy-texnik bazani rivojlantirish, balki inson kapitaliga investitsiya sifatida ham qaraladi. Shu sababli, har bir sarflangan mablag'ning iqtisodiy samaradorligini baholash va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish tizimini yaratish dolzarb vazifalardan biridir.

Oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida xarajatlarni avvalgi yillarda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar asosida kelgusi davr uchun tizimlashtirilgan holda rejalashtirish xarajatlar smetasi orqali amalga oshiriladi. Xarajatlar smetasi — budjet tashkiloti yoki budjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ–594-son qaroriga muvofiq, davlat budjetining g'azna ijrosini tatbiq etish orqali budjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida g'aznachilik tizimi tashkil etilgan [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Olimlarning qarashlari, izlanishlari va ularning natijalari ular tomonidan olib borilgan tadqiqot obyektiga xos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida amalga oshirilayotgan xarajatlar hisobini to'g'ri yuritish, budjet mablag'lari hamda budjetdan tashqari mablag'lar hisobini tashkil qilish, shuningdek ularga oid shakllantirilgan hisobotlarning ishonchligini ta'minlash va ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar hamda risolalarda o'z aksini topgan.

Xususan, Buyuk Britaniya iqtisodchi olimlari Cropper P. va Cook R. "Universitetlarda faoliyatga asoslangan xarajatlar — besh yildan keyin" nomli ilmiy ishida "Oliy o'quv yurtlarida xarajatlarni hisobga olish tijorat korxonalarida qo'llaniladigan xarajatlarni boshqarishning an'anaviy usullaridan sezilarli darajada farq qiladigan ixtisoslashgan sohadir. Oliy ta'limda xarajatlarni hisobga olishning samarali tizimi sektorning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, ko'p qirrali operatsion tuzilmalarni, notijorat yo'nalishlarini, turli moliyalashtirish mexanizmlarini hamda o'qitish, tadqiqot va jamoatchilikni jalb qilish kabi murakkab natijalarni hisobga olishi kerak", deya ta'kidlashgan [3].

Respublikamizda ham bu sohada ko'plab olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu jumladan, mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, S. U. Mehmonov budjet tashkilotlarining majburiyatlari hisobi bilan bog'liq alohida xususiyatlarga to'xtalib, "Budjet tashkilotlari xarajatlarning g'azna ijrosi tizimi bilan qamrab olinganligi, to'lov hujjatlarining elektron shaklda taqdim etilishi, budjet hamda budjetdan tashqari mablag'larning shaxsiy hisobvaraqlarda alohida hisobga olinishi hamda smetalarga asosan moliyaviy majburiyatlarning to'lab berilishi zarurligi"ni ta'kidlagan [4].

Ko'pchilik olimlar yondashuvida oliy ta'lim tashkilotlari subyektlarining iqtisodiy-moliyaviy faoliyati, moliyaviy barqarorlikka erishish, hisob tizimini yo'lga qo'yish va davriy hisobotlarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Biroq pirovard maqsad o'zgarmaydi: ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish, raqobatbardosh oliy ta'lim tashkilotlari sonini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etish va hisobot hamda axborotlarni ishonchli shaklda yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqot oliy ta'lim tashkiloti subyektlarida budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar hisobini joriy etishning O'zbekiston budjet intizomi va budjet mablag'laridan foydalanish shaffofligiga ta'sirini baholash, shuningdek milliy standartlar asosida hisob yuritish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, raqamli axborot tizimlarining ushbu sohadagi o'rni va rivojlanish tendensiyalarining samaradorligini tahlil qilishda oliy ta'lim tashkilotlarining rasmiy statistik ma'lumotlari asos qilib olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar hisobi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida yuritiladi hamda ushbu hujjatlar xarajatlarni rejalashtirish, amalga oshirish, ularni aks ettirish va hisobotlarni tayyorlashning yagona tartibini belgilaydi. Oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar odatda IV guruh yo'nalishlari bo'yicha hisobga olinadi (1-rasm).

I-guruh — "Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar" bo'lib, professor-o'qituvchilar hamda boshqa xodimlarning oylik ish haqi, ustamalar va rag'batlantirish to'lovlari ushbu guruh tarkibiga kiradi.

II-guruh — "Ish beruvchining ajratmalari" bo'lib, bunda asosan mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan barcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi.



1-rasm. Xarajat guruhlari. [5]

III-guruh — "Kapital qo'yilmalar" xarajatlari bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining kapital qo'yilmalari va qurilish xarajatlari hisobi ushbu guruh doirasida yuritiladi.

IV-guruh — "Boshqa xarajatlar" deb nomlanib, yuqoridagi uch guruh tarkibiga kiritilmagan barcha xarajatlar ushbu guruhda hisobga olinadi. Jumladan, kommunal xizmatlar, xizmat safari xarajatlari, xo'jalik xarajatlari va joriy ta'mirlash ishlari, laboratoriya uskunolari, kompyuterlar va texnik jihozlar kabi asosiy vositalarni xarid qilish, bino va inshootlarni saqlab turish bilan bog'liq barcha xarajatlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Davlat oliy ta'lim tashkilotlari buxgalteriya hisobini "UzASBO" dasturiy majmuasida olib boradilar. Ularning xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetalari hamda shtat jadvallari dasturiy majmuada oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan shakllantiriladi va tuziladi. Dasturiy majmuada shakllantirilgan va tuzilgan xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetalari hamda shtat jadvallari tasdiqlanib, har biriga xos QR-kodlar qo'yish orqali dasturiy majmuada ro'yxatga olinadi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining xarajatlar smetasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan tegishli moliya yili uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmi doirasida tuziladi (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta'lim tashkilotlarining 2020-2024-yillarda budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi ming so'm.[6]

№	Guruh nomi	2020	2021	2022	2023	2024
1	I-guruh Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	1 112 153 976,78	1 192 125 578,13	1 498 047 409,00	1 879 836 963,20	2 281 598 506,10
2	II-guruh Ish beruvchining ajratmalari	153 847 966,79	123 247 933,71	154 163 933,50	196 756 694,50	251 270 058,90
3	IV-guruh Boshqa xarajatlar	578 320 067,93	671 900 025,69	845 388 016,90	1 966 762 309,50	2 330 450 708,40
	JAMI	1 844 322 011,49	1 987 273 537,53	2 497 599 359,40	4 043 355 967,20	4 863 319 273,40



2020–2024 yillar davomida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim tashkilotlari uchun davlat budjeti hisobidan ajratilgan mablag'lar izchil o'sib bordi va bu davr oliy ta'lim tizimining moliyaviy ta'minotida sifat jihatidan sezilarli o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatadi. Taqdim etilgan ma'lumotlar uch asosiy xarajat guruhlar bo'yicha tahlil qilinadi. Jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (I-guruh), ish beruvchining ajratmalari (II-guruh) hamda boshqa xarajatlar (IV-guruh).

Jami moliyalashtirish hajmi 2020-yildagi 1-trillion 844-milliard so'mdan 2024-yilda 4-trillion 863-milliard so'mga yetgan. Bu besh yillik davrda budjet mablag'larining 263 foizga oshganini bildiradi. Eng katta o'sish 2023-yilda kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan moliyalashtirish hajmi 62 foizga oshgan. Bu davlat tomonidan oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilgan investitsiyalarning strategik darajada kuchayganini ko'rsatadi.

Barcha oliy ta'lim tashkilotlari budjet hisobini xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida yuritadilar. Ular belgilangan maqsadiga ko'ra tegishli turlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha - Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ochiladi. Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari tasdiqlangan rejali budjetdan ajratiladigan mablag'larni, ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik va moliyaviy majburiyatlarni, amalga oshirilgan kassa xarajatlarini o'zida aks ettirishga mo'ljallangan analitik hisob registrlari hisoblanadi.

Oliy ta'lim tashkilotlari xarajatlarining davlat budjetidan moliyalashtirish 503 000 «Budjetdan moliyalashtirish» subschyotida amalga oshiriladi hamda tashkilotlarda ushbu subschyotning kreditida g'aznachilikdagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlar orqali budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan to'lovlar aks ettiriladi, bunda, debitor va kreditorlarni hisobga oluvchi va boshqa tegishli subschyotlar debetlanadi. Subschyot debetiga shaxsiy g'azna hisobvaraqlar orqali amalga oshirilgan to'lovlar boyicha kassa xarajatlarining tiklanishi, hisobot yilining oxirida amalga oshirilgan to'lovlarning yopilishi, shuningdek boshqa amalga oshirilgan to'lovlarni kamaytiradigan mablag'larni aks ettiradilar, bunda debitor va kreditorlarni, budjet mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi va boshqa tegishli subschyotlar kreditlanadi. Bular quyidagi buxgalteriya o'tkazmalarida amalga oshiriladi (2-jadval).

2-jadval. Davlat budjetidan moliyalashtirilgan mablag'lar hamda ular hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlarning buxgalteriya muomalalarida aks ettirilishi. [7]

№	Buxgalteriya muomalalarining mazmuni	Debet	Kredit
1	Budjet mablag'lari hisobidan xodimlarga mehnatga haq to'lash bo'yicha avans to'landi	153 400	503 000
2	Budjet mablag'lari hisobidan YalT o'tkazildi	342 200	503 000
3	Budjet mablag'lari hisobidan mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni bo'yicha avans to'lab berildi	151 100	503 000
4	Hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar rivojlantirish jamg'armalariga o'tkazilganda	102 401	503 000
5	Yil mobaynida budjetdan moliyalashtirilgan mablag'lar (amalga oshirilgan to'lovlar) hisobdan chiqarildi	503 000	981 000

Oliy ta'lim tashkilotlarini budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishi qat'iy belgilangan tarzda tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tashkilotlari subyektlarida budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar hisobini to'g'ri va tizimli yuritish ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish hamda budjet intizomini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larning hajmi yildan-yilga oshib borayotganligi oliy ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xarajatlar smetasi asosida rejalashtirish, xarajatlarni belgilangan guruhlar bo'yicha hisobga olish hamda shaxsiy g'azna hisobvaraqlari orqali moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish budjet mablag'larining maqsadli va manzilli sarflanishini ta'minlamogda. "UzASBO" axborot tizimida buxgalteriya hisobining yuritilishi, smeta va shtat jadvallarining elektron shaklda tasdiqlanishi hamda QR-kodlar orqali ro'yxatdan o'tkazilishi budjet jarayonlarida shaffoflik va hisobdorlik darajasini sezilarli oshirmogda.

Shu bilan birga, xarajatlar hisobini yuritishda mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga qat'iy rioya etish, moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazish hamda kassa xarajatlarini samarali boshqarish oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy intizomini mustahkamlashga xizmat qilmogda. Xarajatlarning inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiya sifatida qaralishi esa oliy ta'lim tizimining uzoq muddatli rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Olib borilgan izlanishlar jarayonida quyidagi takliflarni berish o'rinli hisoblanadi.



1. Oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar smetasini shakllantirishda avvalgi yillardagi real moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda strategik rivojlanish maqsadlarini hisobga olgan holda o'rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Axborot tizimlaridan foydalanishni kengaytirish "UzASBO" dasturiy majmuasini boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyalash orqali moliyaviy ma'lumotlarning yagona bazasini shakllantirish, hisobotlarning tezkorligi va ishonchliligini yanada oshirish lozim.

3. Budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlar bo'yicha "xarajat–natija" tamoyiliga asoslangan baholash mexanizmini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

4. Shaxsiy g'azna hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda mas'ul xodimlarning moliyaviy savodxonligini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksini tasdiqlash to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda O'RQ–360-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/2304146>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 594-son qarori. <https://lex.uz/docs/1083183>
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018-yil 20-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining 2-sonli standarti — 'Yagona schyotlar rejasi'ni tasdiqlash to'g'risida"gi 3078-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/3984234>
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2019-yil 18-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining 3-sonli standarti — 'Budjet hisoboti'ni tasdiqlash to'g'risida"gi 3124-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/4204583>
5. Cropper, P., & Cook, R. (2000). Activity-based costing in universities—five years on. Public Money & Management, 20(2), 61–68.
6. Mexmonov, S. U. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – T.: 2018. – 199 b. <https://lib.tdiu.uz>
7. Ostonokulov, A. A. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 72 b. <https://old.edu.uz/uz/library>
Abdualilova, D. A. "Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli mablag'lari hisobini takomillashtirish": monografiya. – T.: "MAKON ZIYO NURI", 2024. – 136 b. <https://makonzionnuri.uz> <https://kitob.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100